

JISMONIY SHAXSLARGA “NASIYA” QARZ MAHSULOTINI AJRATISH OFERTA SHARTNOMASI

AT “Xalk banki” (bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslarga (bundan buyon shartnoma matnida ”Mijoz” deb yuritiladi) bank mobil ilovasi orqali masofadan turib “Nasiya” qarz mahsulotini ajratish to‘g‘risidagi ommaviy elektron oferta shartnomasini (bundan buyon shartnoma matnida “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzishni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq taklif qiladi.

Mijoz ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi, mijozning mazkur shartnomada ko‘rsatilgan tartibda va hajmda bank bilan shartnomani tuzishga roziligini bildiradi.

Mazkur oferta “xazna” mobil ilovasida joylashtiriladi.

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. “Nasiya” qarz mahsulotini (keyingi o‘rinlarda qarz) – muddatlilik, to‘lovlilik, qaytarishlik va ta‘minlanganlik shartlari asosida, milliy valyutada, jismoniy shaxslarga “xazna” mobil ilovasi orqali, ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida qarz ajratilishi tushuniladi;

1.2. Mijoz – “xazna” mobil ilovasi orqali “Nasiya” qarz xizmatidan foydalanishga buyurtma bergan jismoniy shaxs;

1.3. “xazna” mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda mobil ilova) – Bank tomonidan ko‘rsatiladigan ma‘lum xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi, mobil qurilmalarda (smartfon, planshet va hokazo) ishlash uchun moslashgan dasturiy ta‘minot;

1.4. Oferta – Mobil ilova orqali bank mijozlariga e‘lon qilingan, yetarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan bank va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif;

1.5. Aksept – Mijozning qarz bo‘yicha bank ofertasini qabul qilinganligi to‘g‘risidagi javobi;

1.6. Ssuda hisobvarag‘i – Mijozga ajratilgan qarz aks ettiriluvchi Bank tomonidan hisobvaraqlar rejasiga muvofiq ochiladigan alohida shaxsiy hisobvaraqlar;

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank mijozga, ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda qarz ajratadi, mijoz esa olingan qarz mablag‘larini belgilangan muddatda qaytarish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI VA JOYI

3.1. Mijoz tomonidan shartnomani akseptlash “xazna” mobil ilovasi orqali masofadan turib qarz olish imkonini beruvchi amaliyotlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

3.2. Mijoz tomonidan shartnoma akseptlangan va mijozning bank kartasiga buyurtma berilgan qarz miqdorining kirim qilingan paytdan boshlab bank va mijoz o‘rtasidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

3.3. Shartnoma mijozning doimiy yashash joyida joylashgan bank xizmatlari markazida tuzilgan hisoblanadi.

0

IV. QARZ AJRATISH TARTIBI VA SHARTLARI

4.1. Qarz shartnoma shartlariga binoan, mijoz tomonidan mobil ilova orqali elektron ravishda rasmiylashtirilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan miqdorda va muddatga, mobil ilovada mijoz buyurtmanomasiga asosan ajratiladi.

4.2. Bank tomonidan mijozga ajratilgan qarzning hisobi mijozga ochilgan ssuda hisobvarag'ida yuritiladi.

4.3. Qarz, mijoz shartnomani akseptlagan vaqtdan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan, bank tomonidan hamkor tashkilotning bankdagi hisobvarag'iga naqdsiz pul o'tkazish amaliyoti orqali ajratiladi.

4.4. Qarz quyidagi shartlarda ajratiladi:

- Minimal miqdori 300 000 (uch yuz ming) so'm, maksimal miqdori esa 40 (qirq) mln.so'mdan oshmasligi lozim;

- Qarz muddati 36 (o'ttiz olti) oygacha;

- Ajratilayotgan qarz ta'minoti sifatida sug'urta polisi hisoblanadi.

4.5. Mijoz qarz shartlari bilan www.xb.uz saytida batafsil tanishib olishi mumkin.

V. QARZ QAYTARISH TARTIBI

5.1. Qarz to'lovlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qarz to'lov qaytarish jadvalida belgilangan sanada va miqdorda bank kartasi hisobvarag'ida mavjud mablag'lar hisobidan memorial order orqali bank tomonidan qarz to'lovlar hisobi yuritilayotgan hisobvaraqlarga o'tkazib boriladi.

5.2. To'lov jadvali mijozning buyurtmanomasi asosida mobil ilovaga dasturlangan skoring yordamida inson omili ishtirokisiz avtomatik tarzda shakllanadi hamda mijozning foydalanayotgan mobil ilova interfeysida to'lov jadvali ko'ringanidan so'ng "qarzni rasmiylashtirish" tugmasi bosilgach, to'lov jadvali bank va mijoz o'rtasida kelishilgan hisoblanadi.

5.3. Mijozning bank kartasida to'lov jadvali bo'yicha to'lovni to'liq o'tkazish uchun yetarli mablag' bo'lmasa, bank kartasida mavjud barcha mablag'lar qarzni qoplashga to'liq o'tkazilib, bank kartasining chiqim qismiga ta'qiq qo'yiladi. Mijozning bank kartasi hisobvarag'iga, to'lov jadvali bo'yicha qarzdorlik to'liq qaytarilmaguncha, kelib tushayotgan barcha mablag'lar qarz qarzdorligini qoplashga yo'naltirilib boriladi.

5.4. Mijoz tomonidan to'langan to'lovlar quyidagi tartibda qarz qarzdorligini qoplashga yo'naltiriladi:

a) to'lov muddati o'tgan qarzlar;

b) to'lov muddati kelgan asosiy qarz.

5.5. Bank karta hisobvarag'ida qarzni to'lash uchun mablag'lar yetarli bo'lmaganida, mijoz quyidagi boshqa usullardan foydalanib ham qarzni qoplashi mumkin:

bank kassasiga naqd pul kirim qilish orqali;

omonat hisobvaraqlaridan mablag'lar o'tkazish yo'li bilan;

boshqa bank kartalaridan mablag'lar o'tkazish yo'li bilan;

boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan to'lov shakllari bilan.

5.6. Agar qarz to'lovining sanasi bank ish kuni hisoblanmasa, to'lov keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

5.7. Qarzdorlik sud qarorlarini ijro qilish tartibda undirilgan taqdirda, bankning tranzit hisobvaraqlariga kelib tushgan mablag'lar tegishli sud qarori bilan belgilab berilgan summalarni qoplashga yo'naltiriladi.

5.8. Mijoz tomonidan to'lov jadvali bo'yicha to'lovlarni qaytarish surunkasiga ikki marotaba yoki bir kalendar yili davomida uch marotaba buzilgan taqdirda bank qarzdorlikni muddatdan oldin undirish choralari ko'radi.

VI. QARZ TA'MINOTI BO'YICHA TALABLAR

6.1. Ushbu shartnoma asosida ajratiladigan qarz sug'urta polisi bilan ta'minlanadi.

6.2. Ajratiladigan qarzni sug'urtalash bo'yicha barcha shartlar Bank va sug'urta kompaniyasi o'rtasida tuziladigan bosh shartnomada ko'rsatib o'tiladi.

VII. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

7.1.1. Shartnomaga muvofiq majburiyatlarning mijoz tomonidan bajarilishini ta'minlash sharti asosida yoki shunday shartsiz mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish;

7.1.2. Buyurtma beruvchiga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni asoslantirilgan holda rad etish;

7.1.3. Qarz ajratish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni buyurtma beruvchidan so'rab olish;

7.1.4. To'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, majburiyatlarning qarz oluvchi tomonidan muddatidan ilgari bajarilishini talab qilish.

7.1.5. To'lov jadvali bo'yicha to'lovlar muddati o'tganida mijozning bank karta hisobvarag'ining chiqim qismiga ta'qiq qo'yish;

7.1.6. Mijoz tomonidan ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va kredit shartnomasi shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni "Kredit axboroti tahliliy markazi" kredit byurosi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit Axboroti Davlat Reestriga yuborish;

7.1.7. Bank ajratilgan qarzning muddati kelgan qismini mijozning banklarda ochilgan barcha plastik karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib oladi.

Bunday bank operatsiyasi mijozni oldindan ogohlantirishsiz, to'lov muddati kelgan sanada va undan keyingi har qanday sanada amalga oshirilishi mumkin hamda amalga oshirilgan bu turdagi bank operatsiyasi haqida mijozga alohida xabarnoma yuborilmaydi.

7.1.8. Bank qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

7.2.1. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish qoidalari bilan tanishib chiqish;

7.2.2. O'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;

7.2.3. Shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish;

7.2.4. Uch bank ish kunidan oldin bankni ogohlantirgan holda, ushbu mahsulotdan foydalanishni rad etishi mumkin.

7.2.5. Qarzni muddatidan oldin qaytarish;

7.2.6. Mijoz qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.3. Bankning majburiyatlari:

7.3.1. Mijozning huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida mijozga ishonchli hamda to'liq axborotni ma'lum qilishi;

7.3.2. Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi;

7.3.3. Bank zimmasiga qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

7.4. Mijozning majburiyatlari:

7.4.1. Mikromoliyaviy xizmatdan foydalanishdan oldin ushbu oferta shartnomasi shartlari bilan tanishib chiqish;

7.4.2. Mijoz, qarz ajratilishida va boshqa hollarda mobil ilova texnik nosozligi sababli mijozning bank kartasi yoki boshqa hisobraqamlariga ortiqcha ajratilgan mablag'lar to'g'risida bankni zudlik bilan ogohlantirishi va ushbu mablag'larni bankka qaytarishi;

7.4.3. Majburiyatlarni shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarish, kredit va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda to'lab borish;

7.4.4. Qarz ajratish uchun bankka skoring tahlili asosida aniqlangan ish haqini (va unga tenglashtirilgan boshqa daromadlari) bank kartasiga tushishini ta'minlash (ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa daromadlarini boshqacha tarzda olmaslik);

7.4.5. SMS xabar yuborish uchun taqdim etilgan mobil telefon raqami o'zgarganda, ushbu o'zgarish haqida bankni xabardor qilish va yangi mobil telefon raqamni bankka taqdim etish;

7.4.6. Yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismidagi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan boshqa holatlardagi o'zgarishlar to'g'risida bankni 5 (besh) bank kuni mobaynida xabardor qilish;

7.4.7. Mijoz qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin;

7.4.8. Bank tomonidan foydalanuvchiga firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risida ma'lumot berilgandan keyin har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyotkor bo'lishi;

7.4.9. Qurilmasi yo'qolganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligini aniqlagan paytdan boshlab zudlik bilan biroq 1 kundan kechiktirmay Bankni xabardor qilishi;

7.4.10. O'z rozilgisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 kun ichida bu haqda Bankni xabardor qilishi;

7.4.11. Bankka o'zining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi shart, ushbu ma'lumotlar Bankning foydalanuvchi bilan bog'lanishi uchun zarurligi, agar ushbu ma'lumotlar o'zgarsa, o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 kun ichida bu haqda Bankka xabar berishi lozim;

7.4.12. Bankning so'roviga ko'ra mijoz operatsiyani o'zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni mijozning topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, mijoz firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi lozim.

7.4.13. Mijoz qonun hujjatlari yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

VIII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mazkur shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

9.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi, to'lashni taklif etmaydi va bunday to'lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

9.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

9.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag'batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchi Mazkur hujjat elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-

kodni skaner qiling. www.xb.uz veb-saytiga o‘ting va elektron hujjat to‘g‘risida ma‘lumotlarni oling. tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta‘minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

9.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo‘lgan holatlar yuzasidan shubha tug‘ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og‘zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma‘lum muddat ichida tegishli choralar ko‘rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal qiladilar.

10.2. Agarda ko‘rsatib o‘tilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etilmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan, Bankning kredit ajratgan filiali joylashgan hududdagi fuqarolik sudida hal qilinadi.

XI. FORS-MAJOR

11.1. Taraflar ushbu shartnoma imzolanganidan keyin majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun, taraflar oldindan ko‘ra olishmagan, tegishli choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo‘lmagan favqulodda tushadigan hodisalar natijasida vujudga kelgan, yengib bo‘lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini (zilzila, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar) hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

11.2. Yengib bo‘lmaydigan kuch holatlariga asoslanadigan Taraf boshqa Tarafni bunday holatlar boshlanganligi to‘g‘risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi shart va shu bilan birga istalgan tarafning talabiga ko‘ra holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi, tegishli tashkilot tomonidan berilgan hujjat taqdim etilishi kerak.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

12.1. Ushbu shartnoma mijoz tomonidan “xazna” ilovasi orqali tasdiqlangan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga kiradi.

12.2. Taraflar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amal qiladi.

12.3. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar tomonlarning kelishuviga muvofiq yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

12.4. Mijoz bankning yozma roziligisiz mazkur shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o‘tkazishga haqli emas.

12.5. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni shartnoma kuchida bo‘lgan davrda vujudga kelgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIII. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

13.2. Hech bir taraf ushbu shartnomaning qog‘oz ko‘rinishini saqlashga va imzolashga majbur emas, Bank tomonidan “xazna” mobil ilovasiga joylashtirilgan ushbu shartnomaning

3.1-bandida ko'rsatilgan harakatlar mijoz tomonidan bajarilgan paytdagi tahriri qonuniy kuchga ega bo'ladi.

XIV. TOMONLAR REKVIZITLARI

<p style="text-align: center;">Bank AT «Xalk banki» Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, 46-uy. Tel: (71) 210-20-02 ye-mail: info@xb.uz H/r: _____ MFO: 01125 STIR: 207215726</p>	
--	--